

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Raxmatova	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari	98
X.A.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	102
A.B.G'ulomov	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlari	107
B.Raxmanov	
Ibn Sinoning nochiziqli tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar	110
N.A.Imomova	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari	117
L.R.Usmonova	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida	122
B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova	
O'zbekistonda tadbirdorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari	128
A.Tashanov	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari	135
A.A.Qambarov	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili	140
D.X.Gafforova, I.I.Rizayev	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari	144
J.J.Shodiyev	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni	150
D.O.G'afurov	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyoferasi	155

SIYOSAT

R.B.Mirzabayev	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari	159
R.A.Ikramov	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarning o'rni	168
D.Sh.Maxkamov	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati	173
M.M.Safarov	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari	177

ТАРИХ

A.Sharafiddinov	
Farg'onan viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	185
M.F.Rasulov	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri)	190
M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari	196
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	200
B.T.Mirzaqulov	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	204

O'ZBEKISTON MINORALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR (QADIMGI VA O'RTA ASRLAR DAVRI)

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О БАШНЯХ УЗБЕКИСТАНА (ДРЕВНЕГО И СРЕДНЕВЕКОВОГО ПЕРИОДА)

SOME REELECTIONS ON THE MINARETS OF UZBEKISTAN (ANCIENT AND MEDIEVAL PERIOD)

Rasulov Ma'murjon Foziljonovich¹

¹Rasulov Ma'murjon Foziljonovich

– Farg'ona davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrası dotsenti, (PhD)

Annotatsiya

Maqolada minoralar qurilishi tarixi, vazifalari, minoralar qurilishining islom me'morchiligi kirib kelishi, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida minoralar qurilishi tarixi, me'moriy uslubi, minoralarning vazifalari haqida fikr yuritiladi. Maqolada minoralar qurilishidagi dinamik o'zgarishlar xronologik tartibda tahlil etilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются история и задачи строительства минаретов, внедрение в исламскую архитектуру строительства минаретов, история строительства минаретов в Средней Азии, в частности в Узбекистане, архитектурный стиль и функции минаретов. В статье анализируются динамические изменения в строительстве башен в хронологическом порядке.

Abstract

The article discusses the history of the construction of minarets, their functions, the spread of Islamic architecture in the construction of minarets, the history of the construction of minarets, the architectural style, the functions of minarets in Central Asia, in particular on the territory of Uzbekistan. The article analyzes the dynamic changes in the design of minarets in chronological order.

Kalit so'zlar: azon, madrasa, masjid, mezana, minora, muazzin, muqarnas, qafasa, sharafa, hisor, peshtoq, savma'a, stambha

Ключевые слова: азан, медресе, мечеть, мизана, минарет, музэзин, мукарнас, кафаса, шарафа, хисор, портал, савмаъа, стамбха

Key words: azan, madrasah, mosque, mizana, minaret, muezzin, muqarnas, kafasa, sharafa, hisor, portal, savma'a, stambha

KIRISH

O'zbekistonda qadimiylar inshootlar, ayniqsa, islom dini va islom an'analari bilan bog'liq inshootlar – madrasa, masjid, maqbara, minora, xonaqoh, hujra va hokazolar ko'plab saqlanib qolgan. Bu inshootlar mamlakat hayotida me'morchilik san'ati tarixidan dalolat beruvchi milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan moddiy-madaniy meros sifatida muhim o'rinn tutadi hamda hozirgi O'zbekistonning xalqaro turizm sohasidagi asosiy milliy brendlardan biri hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan inshootlar ichida minoralar ham talaygina.

Mazkur maqolada Sharq va islom olamida, jumladan O'zbekiston hududida minoralarning paydo bo'lishi tarixi, ularning vazifalari, hozirgi holati haqida mulohaza yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda mavjud minoralar haqidagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar XX asrda M.Ye.Masson, V.L.Voronina, I.M.Azimovlar tomonidan olib borilgan [3, 5, 8.].

Hozirda O'zbekistondagi madaniy meros obyektlari haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda. Lekin, istiqlol yillarida respublikadagi minoralar va ularning tarixi haqida yaxlit ilmiy tadqiqotlar kam uchraydi. Masalan, A.Yaxyayev, T.Qo'ziyevlar minoralar haqidagi o'z maqolalarida ko'proq inshootlarning me'moriy jihatlari – qurilish uslubi, tarhi, qurilish ashyolariga e'tibor qaratadilar [14, 15, 16.]. Tadqiqotchi I.Yusupov o'z tadqiqotlarida Xorazm vohasida tarixda minoralardan foydalanishning pochta-aloqa, harbiy-strategik inshoot sifatidagi vazifalariga ko'proq urg'u beradi [16.].

TARIX

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sharqda, islom olamida, jumladan Markaziy Osiyo hududlarida minoralar diniy maqsadlarda qurish qachondan ommaviy tus oldi.

Minora – islom me'morchiligining o'ziga xos xususiyati va azon aytildigan joy. Minora so'zi arabchada bir necha sinonimlarga ega va turli, lekin bir-biriga yaqin ma'holarni anglatadi. Masalan, "olov" yoki "nur" (nar yoki nur) degan ma'noni anglatuvchi "manar" yoki "manara" deb ataladi. Olimlarning fikricha, manara iborasi oromiy tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, tarjimada "shamdon" ma'nosini bildiradi. Minora arabchada monastirdagi chiroqning yorqin nuriga diniy ishora sifatida savma'a – "monastir" yoki "hujra" ma'nosini ham anglatadi. Bundan tashqari, kamroq qo'llaniladigan va minoraning maqsadini aniqroq ifodalaydigan "mezana" iborasi ham ishlatalidi [17.].

Shunday qilib, minora baland, tik inshoot bo'lib, har bir yirik (ko'proq Jome) masjidlarning muhim tarkibiy qismi sifatida islom me'morchiligineng qadimgi elementlaridan biri hisoblanadi. U bir yoki bir nechta chiqib turuvchi tor yo'lak (galereya)lar bilan o'ralgan bo'lib, u yerdan muazzin (azon aytuvchi) musulmonlarni namozga chorlagan. Minoralardan turib azon aytish hijriy 2-yilda (milodiy 623-24-yy.) diniy marosimlarning muntazam qismiga aylandi.

Ilmiy tadqiqotlar islom olamida minoralar qurilishining boshlanishini Ummaviylar davri (661–750-yy.)ga mansub ekanligiga ishora qiladi. Yevropalik tadqiqotchilar dastlabki minoralar o'sha davrda Suriyadagi cherkov minoralarining nusxalari ekanligini ta'kidlaydilar. Boshqa ma'lumotlar esa bu minoralar Mesopotamiyadagi Bobil va Ossuriya zikkuratlaridan kelib chiqqanligiga ishora qiladi. Demak, islomda ilk minora Suriya poytaxti Damashqda "Ummaviylar" jome masjidida Muoviya ibn Abu Sufiyon tomonidan qurdirligani [18.]. Bu minora olti burchakli bo'lib, bir qarashda cherkov minoralaridan andoza olingan, degan fikrlarda ham asos borga o'xshaydi.

K.A.C.Creswell* o'zining islom me'morchiliga minoralarning kirib kelishi haqidagi risolasida Fustatdagi Ummaviylar masjidining tomida qurilgan to'rtta savma'a eng qadimgi minoralar ekanligini ta'kidlaydi. Creswellning fikricha, Damashqdagi Ummaviylar masjidining islomgacha qurilgan va har bir burchagida to'rtta minorasi bo'lgan eng qadimgi ibodatxona minoralari azon aytish uchun ishlataligan. Shuning uchun u Fustatdagi minorani Damashq prototipidan ilhomlantirgan va uning ko'rinishi zohid hujrasiga o'xshashligi uchun savma'a (hujra) deb nomlangan, deb taxmin qiladi [10. P. 1.]

Dastlab minoralar eng qadimgi masjidlarning umumiyligi majmuasi tarkibiga kirmagan bo'lsada, tez orada musulmon shaharlarning o'ziga xos me'morchilik an'anasiga, musulmon ziyyaratgohlari tarkibiy qismiga aylandi. Minoralar har bir mintaqada o'ziga xos uslublarda bunyod etildi. Minoralarning qurilishiga mintaqaning jamiyatni, madaniyatni va sharoiti katta ta'sir ko'rsatdi, bu ularning ko'rinishi, hajmi va shaklida o'z aksini topdi.

O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining strategik ahamiyatga ega tarmoqlarida joylashganligi sababli savdo yo'llarida muhim markazlar hisoblangan shahar va qishloqlarda buniyod etilgan qadimgi minorasimon inshootlar saqlanib qolmagan bo'lsa-da, dastlab ular karvon yo'llarini belgilovchi mayoq, shaharlar aholisini tashqi xavf-xatardan ogoh etuvchi kuzatuv punkti vazifalarini o'tash uchun qurilganligi shubhasizdir.

Markaziy Osiyo hududlari, jumladan O'zbekiston hududlarida minoralar qurilishi hududning ijtimoiy-siyosiy hayotiga shaharsozlik an'analari kirib kelgan davrdan boshlangan va ko'plab (harbiy-strategik, aloqa vositasi, yo'l ko'rsatkich mayoq, ayrim hollarda, jinoyatchilarni jazolash (jinoyatchi baland minoralarda pastga uloqtirilgan) joyi va boshqa) maqsadlarda foydalilanigan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Markaziy Osiyo hududlaridagi ilk shaharlar tarhi (loyiha, chizma)da hukmdor arki yoki qo'rg'onining quyi qismi baland ko'tarilib, platforma ustiga qurilgan, atrofi mudofaa devorlari bilan o'rabi olinib, uning burchak qismlariga burjlar o'rnatilgan. Shaharlarning shahriston qismi uning rabot qismidan mudofaa devori bilan ajratib turilgan va uning tashqi tomonidan ham qo'shimcha burjlar qurish yo'li bilan mustahkamlangan. Shahar darvozalarining ikki chetida ham burjlar o'rnatilgan va bu inshoot darvozaning mudofaa qobiliyatini yanada oshirgan.

* Ser Keppel Archibald Kemeron Kresuvell (1879–1974-yy.) – islom me'morchiligi tarixi bilan shug'ullangan ingliz olimi.

Markaziy Osiyodagi shaharlarning kelib chiqish va rivojlanish tarixi bevosita shahar mudofaa tizimining rivoji bilan bog'liqdir. Masalan, Turkmanistondagi ilk bronza davriga oid Gonur-Depe (Gonur-Tepa) [11, 12.], Altin-Depe (Oltin-tepa) [7.], Samarqand viloyatidagi ilk temir davri yodgorligi – Ko'ktepa [6. C. 35-53.], Surxondaryodagi Kuchuktepa [4.] kabi yodgorliklar mudofaa devorlari bilan o'rab olingenligiga devorlarning ma'lum bir masofalarida burjlar yoki kuzatuv minoralari bo'lganligi aniqlangan. Qadimgi shaharlarning mudofaa devoir bilan o'rab olingenligi va turli tomonlardan darvozalari hamda ikki tomonida baland minorasimon burjlarining bo'lishi ko'pchilik Markaziy Osiyo qadimiy shaharlariga xos an'ana hisoblanadi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududlarida minoralar qurilishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda shaharsozlik an'analari vujudga kelishi bilan boshlangan va turli maqsadlarda foydalanilgan. Masalan, Zurmala minorasi (Surxondaryo viloyati, mil.avv. II asr) yirik monastirlik jamoasining budda e'tiqodi markazi bo'lgan [19.]. Tadqiqotchilar, xususan M.E.Masson, G.A.Pugachenkova va L.Yu.Mankovskayalanan fikricha, Markaziy Osiyo tipidagi dumaloq minoralar bronza davridan ma'lum bo'lgan qal'a devorlari prototipi bo'lib, ular yodgorlik ustunlari – buddizmdagi stambha; ko'chmanchi qabilalar orasida masofa va chegarani belgilovchi ustunlar bo'lib xizmat qilgan; silindrsimon yoki konussimon burj minoralari esa ustiga butlar o'rnatilgan yoki olov yonib turgan mayoqlar vazifasini bajargan [20.].

Arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi va bu yerda islam dinining tarqalishi natijasida, aniqrog'i, IX–X asrlardan boshlab minoralar qurilishi va ulardan foydalanish ko'proq diniy maqsadlarga qaratildi. Bu minoralar tarhi, me'moriy yechimlari, tashqi ko'rinishi jihatdan oldingi minoralardan ayrim jihatlari bilan farq qildi. Dastlab minoralar katta shaharlarda Jome masjidlarining tarkibiy qismi sifatida aholini namozga chorlash maqsadida qurilgan. Masalan, Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida masjid va minoralar qurilishi haqida bir necha o'rinalarda ta'kidlanadi: "Qutayba ibn Muslim to'qson to'rtinchchi yili (7-oktabr 712 – 25-noyabr 713) Buxoro hisorining ichida masjidi jome bino qildi.... Abu Abdulloh al-Jayhoni uch yuz oltinchi yili (14-iyul 918 – 2-iyul 919) xolis o'z pulidan minora barpo etdi" [9. Б. 124-125.]. Narshaxiy Buxorodagi Kampirak devori qurilishi haqidagi hikoyasida har yarim mil masofada mustahkam minoralar qurilganligini aytib o'tgan [9. Б. 112.]. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, islam tarixida minoralardan faqat diniy maqsadlarda emas, balki harbiy-strategik maqasadlarda ham foydalanilgan.

Markaziy Osiyo hududlarida hozirgacha saqlanib qolgan ulkan va mustahkam minoralar qurilishi IX–XIII asrlarda, ya'ni Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar hamda G'aznaviylar davrida ommaviy tus oldi. Bu davrda qurilgan minoralar diniy maqsadlar bilan birqalikda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning belgisi, davlat qudratining ramzi sifatida ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bularga Minorai Kalon, Vobkent (Buxoro), Jarqo'rgon (Surxondaryo), O'zgan, Bo'ron minorasi (Qirg'iziston), Qutlug' Temur minorasi (Ko'hna Urganch, Turkmaniston) va boshqalarni misol qilish mumkin. Bu minoralar o'zining murakkab me'moriy yechimi, mustahkamligi va hashamatli bilan oldingi minoralardan sezilarli darajada farq qiladi. Bunday hashamatli minoralar ko'proq poytaxt shaharlarda yoki o'z davrining yirik savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lgan shaharlarda barpo etilgan. Mazkur minoralar davlatlar yoki sulolalarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy holatini aniqlashda muhim jihatlar bo'lish bilan birqalikda, xalq orasida turli rivoyat va afsonalarning to'qilishiga ham sabab bo'lgan. Bu esa, nafaqat tarixdan, balki oddiy xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va og'zaki ijodidan ham xabar beruvchi manbalar sifatida ham ahamiyatlidir.

Minorai Kalon Buxoro Qoraxoniylar davlati tarkibida bo'lgan 1127-yilda qoraxoni hukmdor Arslonxon Muhammad (1102–1129-yy.) tomonidan qurdirligan. Qurilish tashabbuskori sifatida uning nomi minora kamarlaridan birida o'yib yozilgan. Minoraning me'mori usta Baqo bo'lib, keyinchalik minoraning o'zidan 45 metr uzoqlikda dafn etilgan. Me'morning vasiyatnomasida minora, agar qulab tushsa, uning boshiga tushadigan qilib, o'zi ko'rsatgan joyga ko'mishni vasiyat qilganligi aytilgan. Rivoyatlarga ko'ra, minora poydevorini alebastr va tuya sutidan qo'ygan usta g'oyib bo'lgan, ammo ikki yildan so'ng, poydevor mustahkam bo'lgach, qaytib kelib, g'isht terishga kirishgan [21.].

O'rta asrlar shahri Bolasog'un (hozirgi To'qmoq (Qirg'iziston) shahri atrofi)da qurilgan Bo'ron minorasi (XI asr) haqida xalq orasida quyidagicha afsona mavjud: "...afsonada qudratli xonning qizi tug'ilganligi aytildi. Xon mamlakatning barcha folbinlari va donishmandlarini qizining

TARIX

kelajagi haqida aytib berish uchun taklif qilib, bu voqeani nishonladi. Bir chol qizi o'n oltinchi tug'ilgan kunida o'rgimchak chaqishidan o'lishini aytdi. Xon uni himoya qilish uchun qizi yolg'iz yashashi mumkin bo'lgan baland minora qurdirdi. Xonning xizmatkorlari unga ovqat olib kelib va minoraga mahkamlangan zinapoyada savatga solib berardilar. Minoraga birorta ham o'rgimchak kira olmasligiga ishonch hosil qilish uchun hamma narsa diqqat bilan tekshirilardi.

O'n oltinchi tug'ilgan kunida Xon o'zining tug'ilgan kunini unga bir savat meva olib kelib nishonladi. Xon savatda yashiringan zaharli o'rgimchakni payqamadi. Qizi mevaga qo'l cho'zganda, zaharli o'rgimchak uni tishlab o'dirdi. Xon shu qadar sarosimaga tushib shunday baqirdiki, minora larzaga keldi va tepasi qulab tushib, vayronaga aylandi [22.]. Bu afsona qanchalik haqiqatga yaqin yoki yiroq, lekin minoraning yuqori qismi XV asrdagi kuchli zilzila paytida qulab tushgan va uning balandligi 40 metrдан 25 metrgacha qisqargan. Shunga o'xshash afsona va rivoyatlar boshqa minoralar haqida ham mavjud.

Markaziy Osiyoga mo'g'ullar bosqini natijasida ijtimoiy-iqtisodiyotning barcha tarmoqlari singari, me'morchilik, jumladan, minoralar qurilishi ham tanazzulga yuz tutdi.

Amir Temur va temuriylar (XIV–XV asrlar) davriga kelib, Markaziy Osiyoda markazlashgan qudratli davlatning tashkil topishi, uning harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti o'zining yuqori cho'qqisiga yetdi. Bu davrda Amir Temur va Temuriylar davlati nafaqat mintqa, balki jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biriga aylandi. Davlat tuzilishi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning barcha yo'nalishlarida o'sha davrda rivojlangan ilm-fan yutuqlariga, turli innovations loyihalarga asoslangan edi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan "Qudratimizni ko'rmoq istasang – binolarimizga boq!" degan yozuv Amir Temur davlatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ham anglatar edi. Amir Temur davrida Movarounnahr shaharsozlik an'analarida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmualar (ularning tarkibiga minoralar ham kirgan – R.M.) qurilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davr shaharsozlik sohasida alohida yangi yo'nalishlar, o'z davri uchun innovations loyihalar yaratildi. Ilk o'ta asrlardagi shaharning asosiy qismi bo'lgan "Shahriston" dan ko'lam va mazmun jihatdan farq qiluvchi "hisori"^{*} qurilish an'anasi shakllandi. Bunday shaharsozlik namunasini Samarcand va Shahrisabzda kuzatish mumkin [2. Б. 107.]. Amir Temur va temuriylar davri me'morchiligidagi minoralar nafaqat diniy, harbiy-strategik maqsadlar, balki yirik jamoat va davlat inshootlar (madrasa, maqbara, saroy, karvonsaroy va boshqa)ning tarkibiy qismi sifatida ham qurila boshlandi. Masalan, Bibixonim, Ulug'bek madrasalari, Go'ri Amir, Shohi Zinda majmualari (Samarcand), Oqsaroy (Shahrisabz), Buxoro va G'ijduvondagi Ulug'bek madrasalari va boshqa ko'plab inshootlar tarkibida minoralar bo'lgan. Bu davrda minoralar yuqorida sanab o'tilgan vazifalardan tashqari, bino va inshootlarga ulug'vorlik hamda bezak sifatida barpo etila boshlandi. Ma'muriy bino va inshootlarning kiraverishida ravoq va peshtoqlar hashamatli qilib ishlangan hamda ikki tarafida muqarnasli minoralar qurish an'anaga aylandi. Amir Temur Hindiston yurishidan qaytgandan so'ng Samarcandning shimoliy tomonida, Ohanin darvozasi yaqinida Jome masjidi qurishga buyruq beradi. Yangi jome masjidining qurilishi 1399-yil may oyi boshida Bibixonim madrasasi ro'parasida boshlanadi. Masjid sahni to'rtburchak, burchaklarida baland minoralar bo'lgan. Kiraverishda keng ravoqli hashamatli peshtoq va ikki yonida mahobatli minoralar barpo etilgan [13. Б. 178.]. Masjid burchaklaridagi to'rtta minora azon aytish maqsadida qurilgan bo'lsa, peshtoq yonlaridagi minoralar esa azon aytish uchun emas, balki inshootning umumiyligi me'moriy yechimiga ulug'vorlik, hashamat kasb etish uchun barpo etilgan. Xalq orasida aynan bu masjid qurilishi va minora bilan bog'liq afsona ham mavjud: unda aytilishicha, navbatdagi yurishdan qaytayotgan Temur poytaxtiga yaqinlashib qolgan bo'lsa ham, me'mor asosiy gumbaz qurilishini yakunlashni ortga suravergan va buning evaziga Bibixonimdan bitta o'pic so'ragan. Hukmdor eriga ulug' sovg'ani o'z vaqtida tayyorlab ulgurish maqsadida malika bunga rozi bo'lgan, biroq me'morning bo'sasi shu qadar otashin ekanki, o'chmas iz qoldirgan. Buni ko'rgan Temur esa g'azabga minib yosh xotinidan javob talab etgan va haqiqatni bilgach, me'morni jazolash maqsadida masjidga otlangan. Lekin me'mor minora ustiga ko'tarilgan va avvaldan tayyorlab qo'yagan sun'iy qanotlari yordamida ona shahri Isfahonga uchib ketgan [13. Б. 178.]. Bu haqiqatdan

*Хисори(й) – фарс., араб. ўраб олиш; қуршов, қамал; мустаҳкам қалъа. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллӣй энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 537.

umuman yiroq voqeа, lekin yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, minoralar haqida xalq orasida tarqalgan rivoyatlardan biridir.

Mirzo Ulug'bek davrida me'morchilikda ilm-fan yutuqlaridan foydalanish yanada keng avj oldi. Turli bino va inshootlar qurilishida murakkab muhandislik hisob-kitoblariga bag'ishlangan maxsus risolalar yaratildi (masalan, mashhur muhandis G'iyosiddin Jamshid Koshiyning me'morchilikka oid asarlari) [23.]. Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda qurdirilgan madrasalar peshtoqining ikki yonida ham minoralar barpo etilgan. Bu minoralar azon chaqirish uchun emas, balki o'z davrining me'moriy an'analariga xos ravishda madrasa old tomoni (fasadi)ga ulug'vorlik va hashamat baxsh etish maqsadida qurilgan.

XULOSA

Xulosa o'rniда shuni aytish mumkinki, Sharqda islom olamida minoralar qurish an'anasi Qadimgi Mesopotamiya zikkuratlaridan, yevropalik ayrim tadqiqotchilarning fikricha esa xristianlar monastirlaridan andoza olingan, degan qarashlar mavjud. Islom olamida minoralar qurish va ulardan diniy maqsadlarda foydalanish Ummaviylar sulolasi hukmronligi davridan boshlangan.

Markaziy Osiyoda minoralarning paydo bo'lishi qadimda ilk shaharsozlik an'analarining kirib kelishi bilan bog'liq. Bu davrda va ilk o'rta asrlarda minoralar harbiy-strategik va mudofaa, diniy, aloqa, yo'l ko'rsatgich mayoq va boshqa vazifalarni bajargan.

Markaziy Osiyoda islomning tarqalishi bilan minoraldan yuqoridagi maqsadlardan tashqari, diniy maqsadlarda foydalanishga ham katta e'tibor qaratildi. Bu esa islom me'morchiligidagi minoralar qurilishida o'ziga xos uslublarining yaratilishiga sabab bo'ldi. IX–XIII asrlarda hududda markazlashgan davlatlarning paydo bo'lishi bilan me'morchilikda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning ko'rsatgichlari sifatida baland va hashamatli minoralar qurilishi ommaviy tus oldi hamda san'at darajasiga ko'tarildi. Bu davr minoralarida epigrafik ma'lumot (Qur'on sura va oyatlaridan, hadislardan parchalar, o'sha davr hukmdorlari, minora qurilishining tashabbuskorlari, me'morlar haqida)lardan bezak sifatida foydalanish an'anaga aylandi. Bu davrda xalq orasida minoralar bilan bog'liq turli afsona va rivoyatlar ham shakllandiki, bu o'sha davr oddiy xalqi dunyoqarashi, maishiy hayoti haqida ham ayrim tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi.

Amir Temur va temuriylar davri me'morchiligidagi minoralar qurilishi va ulardan foydalanishda yuqoridagi an'analaridan tashqari, ulardan bino va inshootlarda me'moriy majmuuning ulug'vorlik va hashamat belgisi sifatida foydalanish an'anasi odat tusiga kirdi.

Afsuski, chor Rossiyasi mustamlakachiligi va sovet mustabid tuzumi davrida Markaziy Osiyo yoki Turkiston, keyinchalik O'zbekistondagi madaniy meros yodgorliklariga nisbatan varvarlarcha munosabat natijasida ko'plab me'morchilik inshootlari kabi minoralar ham katta zarar ko'rdi. Bu davrda ko'plab minoralar buzib tashlandi, yoki boshqa maqsadlarda foydalanish oqibatida o'z tarixiy ahamiyatini yo'qotdi. Masalan, "tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, XX asrning boshlari Xivadagi har bir masjid va madrasa yonida minora bo'lgan. Ilmiy izlanishlar ularning soni o'sha paytda saksonga yaqin bo'lganligini ko'rsatadi. Hozirda esa atigi o'n ikkita minora saqlanib qolgan" [1.].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурасулов А. Хива миноралари // Обида ("Ўзбекистон адабиёти ва санъати" иловаси). 2000. 29 сентябрь.
2. Абдураҳмонов М., Раҳмон Н., Гулметов Э. Маданиятшунослик (дарслик). – Тошкент. 2007.
3. Азимов И.М. Архитектура Узбекистана XVIII-нач. XX вв.: Традиции и локальные особенности. Дисс.доктора архитектуры. 1999.
4. Аскаров А.А., Альбаум Л.И. Поселение Кучуктепа. Ташкент: Фан, 1979.
5. Воронина В.Л. Сырцовые минареты верховьев Зеравшана. – V сб.: Памяти М.С. Андреева. Труды Института истории, археологии и этнографии АН Тадж.ССР. Т. СХХ, 1960.
6. Исамиддинов М.Х. Генезис городской культуры Самарқандского Согда, Самарқанд, 2000.
7. Массон В.М. Алтын-Депе. Тр. ЮТАКЭ. Т. XVIII. Ленинград: 1971.
8. Массон М.Е. Краткая историческая справка о среднеазиатских минаретах // Материалы Узкомстариса. Вып. 2 и 3. Ташкент, 1933.
9. Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент: Камалак, 1991.
10. Creswell K.A.C. The evolution of the minaret, with special reference to Egypt. Reprinted from The Burlington Magazine. March, May and June, 1926.
11. Сарианиди В.И. Задолго до Заратуштры (Археологические доказательства протозороастризма в Бактрии и Маргiana). – Москва: Старый сад. 20010.
12. Сарианиди В.И. Маргуш. Древневосточное царство в старой дельте реки Мургаб. Ашхабад: 2002.

TARIX

13. Темур ва Улугбек даври тарихи. Бош мұхаррир А.Асқаров. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяты, 1996.
14. Яхъев А.А. Ўзбекистон меъморчилигидаги миноралар ва минорасимон қурилмаларнинг қиёсий таҳлили. Архитектура. Қурилиш. Дизайн Илмий-амалий журнал. 2015. 3-с. – Б. 3-8; <http://shosh.uz/ozbekiston-memorchiligidagi-minoralar-va-minorasimon-qurilmalarining-qiyosiy-tahlili/>
15. Кузиев Т. Взгляд на историю минаретов на территории Узбекистана. <https://uzor.uz/narodnie-ramesla/arhitektura/vzglyad-na-istoriyu-minaretov-na-territoriu-uzbekistana/>
16. Юсупов И.С. IX–XII асрларда Хоразмда алоқа воситалари сифатида миноралардан фойдаланиш тарихи. Хоразм Маъмун академияси ахбортономаси. 2021. 10-сон. – Б. 304-306; VIII–XIII асрларда марказий осиёда почта алоқа тизимини ривожланиш тарихи. Марказий Осиё тарихи ва маданияти. 2023. 1(1), – Б. 176–180. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/history-culture/article/view/17097>
17. <https://www.worldhistory.org/Minaret/>
18. <https://fitrat.uz/ilk-minora-achon-va-aerda-urilgan/>
19. http://www.ud.uz/uz/unique_charming/tourism/553/
20. <https://uzor.uz/narodnie-ramesla/arhitektura/vzglyad-na-istoriyu-minaretov-na-territoriu-uzbekistana/>
21. https://en.wikipedia.org/wiki/Kalyan_Minaret
22. https://www.journalofnomads.com/burana-tower-kyrgyzstan/#The_legend_of_the_Burana_Tower
23. http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/34720-zbekistondagi-adimij-minoralar-nega-baland-urilgan#_ftn